

ZIYORAT TURIZMINING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHATLARI

P.R. Qurbonov - *Qarshi davlat universiteti dotsenti*

I.B. Safarov - *Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqola ziyorat turizmining iqtisodiy va geografik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, ziyorat turizmining tarixiy rivojlanishi, geografik joylashuvi va iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi hamda ziyorat turizmining turli mintaqalarda qanday shakllanganligi, uning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi va rivojlanish istiqbollari haqida takliflar va tavsiyalarni taqdim etadi. Bunday turizmning barqaror rivojlanishi uchun ekologik, madaniy va iqtisodiy omillarni hisobga olish zarur.*

Kalit so'zlar: *Ziyorat, ziyoratgoh, muqaddas, diniy turizm, sakral geografik joylar.*

ECONOMIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF PILGRIMAGE TOURISM

P.R. Kurbonov - Associate Professor, Karshi State University

I.B. Safarov - Lecturer, Karshi State University

Abstract: *The article is devoted to the study of the economic and geographical aspects of pilgrimage tourism. The article analyzes the historical development, geographical location and economic impact of pilgrimage tourism, and presents proposals and recommendations on how pilgrimage tourism has formed in different regions, its contribution to the national economy and development prospects. For the sustainable development of such tourism, it is necessary to take into account ecological, cultural and economic factors.*

Keywords: *Pilgrimage, pilgrimage site, sacred, religious tourism, sacred geographical places.*

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Аннотация: *Статья посвящена изучению экономико-географических аспектов паломнического туризма. В статье анализируется историческое развитие, географическое положение и экономическое влияние паломнического туризма, а также представлены предложения и рекомендации относительно развития паломнического туризма в разных регионах, его вклада в национальную экономику и перспектив его развития. Для устойчивого развития такого туризма необходимо учитывать экологические, культурные и экономические факторы.*

Ключевые слова: *Паломничество, святыня, священное, религиозный туризм, священные географические места.*

Turizmning an'anaviy yo'nalishlardan bo'lgan ziyorat turizmi hozirda davlatlar iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, islom diniga e'tiqod qiluvchilarning ko'payib borishi hamda daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi ziyorat turizmining jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ushbu sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizm rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Malayziya, Indoneziya kabi mamlakatlarda ziyorat turizmini ommalashtirish va hududiy rivojlantirish uchun keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniya kabi davlatlarda ham ziyorat turizmi standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatdagi restoran va kafelarda halol standartlarni joriy etish amaliyoti boshlandi. Xalqaro aeroportlarda va temir yo'l stansiyalarida turistlar uchun ibodat xonalari ajratildi. O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi bilan ziyorat turizmini rivojlantirish va islom sayyohlik bozoriga kirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'lib, Imom Al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Abu Muin an-Nasafiy va islom olamida mashhur boshqa ko'plab ulamolar yurti hisoblanadi. Hozirda mamlakatda qadimiy me'morchilikning ulug'vor yodgorliklari va qo'lyozmalar saqlanib kelinishi mamlakatning sayyohlik imkoniyatlarini oshirib, musulmon mamlakatlaridan ko'plab sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ziyorat turizmi — bu asosan diniy yoki ma'naviy maqsadlarda amalga oshiriladigan sayohat turidir. U odatda muayyan diniy joylarga, maqbaralarga, ibodat joylariga, yoki diniy marosimlarga qatnashish uchun amalga oshiriladi. Ziyorat turizmi, dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda o'ziga xos iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, muayyan diniy oqimlarning e'tiqodlari va an'analari bilan chambarchas bog'liq.

Ziyorat turizmi asosan diniy sabablar bilan amalga oshiriladi. Masalan, musulmonlar uchun Makka va Madina, xristianlar uchun Vatikanda joylashgan diniy markazlar ziyorat qilinadi. Har bir din o'zining ziyorat joylari va maxsus marosimlarini taqdim etadi.

Diniy va madaniy markazlar dunyo bo'ylab tarqalgan. Masalan: Musulmonlar uchun Makka (Saudiya Arabistoni), Madina (Saudiya Arabistoni) va Quddus (Falastin) ziyorat joylari. Xristianlar uchun Vatikanda joylashgan San Pietro Bazilikasi va boshqa muqaddas joylar. Yahudilar uchun Quddusdagi Yevreysko Sinagogalari. Bu joylar asrlar davomida muqaddas va diniy maqsadlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ziyorat turizmi ko'plab mamlakatlar uchun iqtisodiy manba bo'lib xizmat qiladi. Diniy sayohatlar ko'plab turizm xizmatlarini o'z ichiga oladi, shu jumladan transport, mehmonxona xizmatlari, restoranlar va boshqa turistik inshootlar. Bu sayohatlar davlat byudjetiga soliq to'lovlari, valyuta kirimlari va boshqa iqtisodiy foyda keltiradi. Ziyorat turizmi nafaqat diniy, balki madaniy turizmni ham rivojlantiradi. Ziyorat joylari o'zlarining tarixiy, arxitektura va madaniy jihatlari bilan ham muhim ahamiyatga ega. Bu joylar turizmni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma, restoranlar, muzeylar va boshqa madaniy ob'ektlar bilan ta'minlanadi. Ziyorat turizmi ko'pincha katta hajmdagi odamlarni jalb qiladi, bu esa hududning ekologik holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ziyorat turizmining barqaror rivojlanishi uchun ekologik muhofaza choralarini ko'rish zarur. Shuningdek, ziyorat turizmi mahalliy jamiyatlar va madaniyatlar bilan ham uyg'un bo'lishi kerak.

Musulmonlarning yillik haj ziyorati, dunyoning har bir burchagidan millionlab odamlarni Makka va Madinaga olib keladi. Bu diniy vazifani bajarish, har bir musulmon uchun hayotidagi bir marta bajariladigan majburiyatlardan biridir. Haj ziyorati sayohatchilar uchun muqaddaslik va ma'naviy poklikni his qilish imkoniyatini taqdim etadi. Xristianlar uchun Vatikanda joylashgan San Pietro Bazilikasi va boshqa diniy joylar muqaddas ziyorat joylaridir. Xristianlar

Rimda, ayniqsa Vatikanda o'z diniy an'analarini davom ettiradilar va ibodat qilish uchun ziyorat qiladilar. Ziyorat turizmi dunyo bo'ylab juda katta iqtisodiy ta'sirga ega. Bu turizm turi ayniqsa, diniy markazlar joylashgan hududlarda iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanadi. Diniy sayohatlar, shu jumladan turistik xizmatlar, mehmonxonalar, restoranlar, transport va boshqa xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan sohalarda ko'plab ish o'rinlarini yaratadi.

Ziyorat turizmi chet eldan kelgan sayohatchilarni jalb qilganligi sababli mamlakatning valyuta zaxiralarini ko'paytiradi. Bu o'z navbatida davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Ziyorat joylari atrofidagi hududlarda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Bu hududlar ko'pincha turistlarga xizmat ko'rsatish, ularni qabul qilish va turizmni rivojlantirishga bog'liq infratuzilmani rivojlantirishga majbur bo'ladi.

Ziyorat turizmi sohasida eng katta ulush Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. 2020 yilda ularning jami xarajatlari 29 milliard yevroni tashkil etgan. Bunda eng faol sayyohlar Indoneziya, Xitoy va Malayziya sayohlari sanaladi. Ularning xarajatlari musulmon mamlakatlari orasida turizm sohasidagi xarajatlarning umumiy hajmining 17 foizini tashkil etadi. Jahon bozorida ziyorat turizmining 80 foizi 19 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Bu faqat musulmon mintaqalarinigina emas, balki qator turizm rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi. 2019 yilda ziyorat turizmi tufayli ushbu mamlakatlarning YAIM dagi turizmning ulushi 148 milliard dollarni, bu sohadagi aholining bandligi esa 5 million kishini tashkil etdi. Prognozlarga ko'ra, 2023 yilda mazkur ko'rsatkich 190 milliardgacha o'sadi va 6 million kishi ziyorat turizmi sanoatiga jalb etilishi mumkin. Shuningdek, AQShda ziyorat turizmi sohasida 300 ming kishi band bo'lib, ziyorat uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan turistik manzillar bo'yicha har yili Mastercard & Crescentrating "Global Muslim Travel Index (GMTI)" bo'yicha hisobotlar e'lon qilib boradi. 2019 yilgi natijalarga ko'ra to'qqizinchi marta Malayziya turistlar uchun eng yaxshi turistik yo'nalish deb topilgan edi. Indoneziya so'ngi yillarda bu indeks bo'yicha Malayziyaga tenglashdi. Keyingi

o'rinlarni Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA egalladi.¹

Ziyorat turizmini O'zbekistonda ham rivojlantirilsa, mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha ziyorat obyektlari mavjud. Musulmonlar uchun ziyoratga borish – islomiy yodgorliklarni ziyorat qilish, muqaddas qadamjolarini borib ko'rish va rivojlantirish uchun xayr-ehson qilish maqsadida diniy hududlarni ziyorat qiladilar. Mamlakatimizda bu ziyorat deb nomlandi va bular dunyo musulmonlarining yurtimizga intilishini kuchaytirishi shubhasiz. Ziyorat faqat tomosha emas: u eng avvalo buyuklar ruhini his etish, ma'naviy-ruhiy muhitdan quvvat olish, ulug'lar maqomi, tiriklik va hayot haqida eng azaliy haqiqatni anglash, qalbni shu haqiqat bilan boyitishdir.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Islom dunyosida katta xizmat qilagan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqyosida bilishadi, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin. Ziyorat turizmi hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni hoxlaydi. Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, bugungi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmi — bu diniy va madaniy qadriyatlarni o'rganish, diniy obidalarni ziyorat qilish, ma'naviy o'sish va tinchlikni topish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat turidir. U dunyo miqyosida iqtisodiy jihatdan muhim

¹ 2019 by Islamic Tourism Centre, Malaysia/http://www.sesric.org/imgs/ncvs/2228_MR_DAUD.pdf.

sohalardan biriga aylanib, ko'plab mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish va turizm sohasining rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Ziyorat turizmi nafaqat milliy iqtisodiyotga foyda keltiradi, balki global miqyosda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmining geografik jihatlari, uning tarixi va rivojlanish xususiyatlari dunyoning turli burchaklarida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bunga musulmonlar uchun Makka va Madina, xristianlar uchun Vatikanda joylashgan diniy markazlar va boshqa diniy va madaniy yodgorliklar misol bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmining rivojlanishi, shuningdek, uning turli mamlakatlardagi ta'siri, infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Takliflar va tavsiyalar:

✓ Ziyorat turizmining samarali rivojlanishi uchun zamonaviy infratuzilmani yaratish zarur. Bu yo'llar, transport tizimi, mehmonxonalar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik xizmatlarini o'z ichiga oladi. Mamlakatlar va hududlar ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani ta'minlashlari kerak.

✓ Ziyorat turizmini rivojlantirishda samarali marketing va reklama strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Diniy sayohatlarni targ'ib qilishda global va mahalliy reklama platformalarini ishlatish orqali sayohatchilarni jalb qilish mumkin.

✓ Ziyorat joylarini ekologik va madaniy jihatdan himoya qilish zarur. Bu joylar nafaqat diniy va madaniy qadriyatlarni saqlash, balki atrof-muhitni ham muhofaza qilishni talab qiladi. Ekologik toza sayohatlarni rivojlantirish muhim bo'lib, bu orqali ziyorat joylarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish mumkin.

✓ Ziyorat turizmi mahalliy aholi uchun iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Shuning uchun, mahalliy aholini turizm sohasida ish bilan ta'minlash, ularni maxsus treninglar orqali tayyorlash, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish muhimdir.

✓ Ziyorat turizmi sohasida xizmatlar sifatini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Sayohatchilar uchun yuqori sifatli xizmatlar va qulayliklarni yaratish, ularning sayohatdan mamnun bo'lishini ta'minlaydi.

✓ Ziyorat turizmi rivojlanishiga oid doimiy tadqiqotlar olib borish, mavjud muammolarni aniqlash va yangi tendensiyalarni kuzatish zarur. Bu orqali turizm sohasida yuzaga keladigan o'zgarishlarga moslashish va samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Ziyorat turizmi faqat diniy vazifalarni bajarish emas, balki iqtisodiy va madaniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhim bir soha sifatida qaralishi kerak. Turizm sohasida ilg'or tajribalarni joriy etish, infratuzilma va xizmatlar sifatini yaxshilash, ekologik muhofazani ta'minlash va mahalliy aholini jalb qilish ziyorat turizmining yanada samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qurbonov P.R., Safarov I.B., "Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi" monografiya // Qarshi.: — 2022
2. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.:— Iqtisod moliya 2010 y.
3. Safarov I.B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
4. Usmanova R., Safarov I. O'zbekistonda turizmni shakllantirishning geografik jihatlarini //Yangi O'zbekistonda milliy turizm istiqbollari. – 2024. – T. 1. – №. 01.
5. Safarov I. B. Developing in Mubarak district pilgrimage tourism //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-2 (120). – С. 590-593.
6. Safarov I. B., Poyanov J. P. Forms and content of tourism //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-1 (119). – С. 491-494.
7. Safarov I.B., Chorshamiyev R.R. G'uzor tumani ziyoratgohlar maskani //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 609-616.
8. Safarov I. B., Rasulov F. I. Prospects for the development of pilgrimage tourism (on the example of Koson district) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 189-191.
9. Safarov I. B., Loqayeva Z. P. Unique features and potential of pilgrimage tourism //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 453-458.
10. Safarov I.B., Murodova Sh.Kh. Geoecological problems in the Nishan district //Экономика и социум. – 2025. – №. 3(130)
11. Safarov I.B., Chorshanbiyeva R.A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №.02(129)

12. Qurbonov P. R. Iqlim o'zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.
13. Toshtemirovna B. M. Geographical aspects of the demographic situation in Kashkadarya region //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 188-190.
14. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. Recreational and touristic opportunities of Uzbekistan's mountains //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 303-312.
15. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. Экономико-географические проблемы градостроительства верхне-Кашкадарьинской области //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.